



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

**2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida
o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 20-martda 1778-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi) Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2025-2026-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari 1-ilovaga muvofiq;

Umumta’lim fanlari hamda xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

2025-2026-o‘quv yili yakunida Kasb-hunar yo‘nalishi bo‘yicha yakuniy imtihon bo‘lib o‘tadigan ta’lim muassasalari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

2025-2026-o‘quv yili yakunida pedagogik sinflar yo‘nalishi bo‘yicha yakuniy imtihon bo‘lib o‘tadigan ta’lim muassasalari ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

9- va 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlari (keyingi o‘rinlarda — imtihonlar) 2026-yil 26-maydan 15-iyungacha o‘tkazilsin (Jismoniy tarbiya va kasbiy ta’lim fani bundan mustasno).

mazkur buyruqning 2-ilovasida keltirilgan chet tili fanlari hamda umumta’lim fanini bilish darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi sertifikati bo‘lgan o‘quvchilar ilovada belgilangan baholash asosida baholanadi hamda tegishli fan bo‘yicha yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etiladi;

tegishli fanlar bo‘yicha, yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, qur’a tashlash yo‘li bilan (yozma shaklda o‘tkaziladigan

fanlar bo'yicha) shakllantirilgan variantlar orasidan 2 ta variant tanlanadi;

tanlangan 2 ta imtihon variantlari vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va ushbu variantlar asosida respublika bo'yicha barcha bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasini topshiradi.

3. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) (D.Davidova)ga:

2026-yilning 20-mart sanasiga qadar yakuniy attestatsiya o'tkaziladigan fanlar bo'yicha topshiriqlar spetsifikatsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

2026-yilning 30-martiga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalari va Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab va maktab-internatlarining bitiruvchi sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasi asosida yakuniy attestatsiya o'tkaziladigan fanlar (og'zaki va yozma) savollarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish hamda baholash mezonlarini tayyorlash;

2026-yilning 31-martiga qadar imtihon materiallarining bazasini ta'lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish uchun Respublika ta'lim markaziga taqdim etish;

ishlab chiqilgan nazorat materiallari asosida imtihon variantlarini shakllantirish;

yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon materiallarining bazasini tayyorlashda kreativ va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritish;

2026-yil 20-aprelga qadar yakuniy davlat attestatsiyasida o'quvchilarning bilimlarini shaffof va adolatli baholashni ta'minlash maqsadida yaratilgan maxsus platformani sinov tariqasida joriy etish uchun, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining tashabbuslari asosida har bir hududdan 2 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasasini tanlab olish;

2026-yilning 10-mayiga qadar platforma bilan ishlash uchun ekspertlar guruhini shakllantirish hamda ular uchun platformadan foydalanish bo'yicha o'quv-treninglar tashkil etish;

tanlab olingan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida platformani o'rnatilgan tartibda aprobatsiyadan o'tkazish, aprobatsiya yakunlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni tayyorlab, belgilangan tartibda taqdim etish;

yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun fanlar kesimida nazorat materiallari ishlab chiqish hamda imtihon materiallari bazasini ta'lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish va ekspertizadan o'tkazish, shuningdek jarayonni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni Pedagog kadrlarni navbatdan tashqari attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganligi uchun undiriladigan yig'imlarning Vazirlik tomonidan Markazga yo'naltirilgan qismidan

amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Respublika ta'lim markazi (D.Norboyeva), Markaz (D.Davidova) 2026-yilning 5-apreliga qadar taqdim etilgan imtihon materiallari bazasini ta'lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilsin va ekspertizadan o'tkazsin.

5. O'quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko'rsatish boshqarmasi (O.Zokirov) bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorlanishlari uchun ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasini 2026-yil 25-mart va imtihon materiallarini hamda baholash mezonlarini 2026-yil 10-aprel sanasiga vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun Axborot xizmatiga taqdim etsin.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining davlat ta'lim standartlari va kasbning ta'lim dasturi asosida egallashi lozim bo'lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida imtihonlari 1-ilovada keltirilgan fanlardan tashkil etiladi.

7. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari uchun Jismoniy tarbiya fanidan imtihonlar 2026-yil 1-6-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining nazorati ostida o'tkazilsin (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

8. Mazkur buyruqning 3- va 4-ilovalariga muvofiq, Kasbiy ta'lim fani o'qitilishi yo'lga qo'yilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinflari uchun Kasbiy ta'lim fanidan yakuniy imtihon joriy yil 17-20-iyun kunlari amaliy imtihon shaklida o'tkazilsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoitlar yaratish;

imtihonlar shaffof, adolatli, xolis o'tkazilishini ta'minlash, imtihonlarning o'z muddatlarida o'tkazilishini nazoratga olish;

tabiiy va texnogen sabablarga ko'ra belgilangan muddatlarda imtihon o'tkazilishining imkoniyati bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida imtihonlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab bo'limlari bilan kelishgan holda boshqa kunda o'tkazishga ruxsat berilganligini ma'lumot va ijro uchun qabul qilish;

imtihonlarning natijalari hamda imtihonga oid ma'lumotlarni umumlashtirib, 2026-yilning 3-iyuliga qadar Markazga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

10. Markaz (D.Davidova) 2026-yilning 15-iyuliga qadar bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni O'quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko'rsatish boshqarmasiga taqdim etsin.

11. Axborot xizmati (D.Sobirova) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda taqdim etilgan fanlar spetsifikatsiyasini 2026-yil 25-martga qadar va imtihon materiallarini 2026-yil 10-aprel sanasiga qadar vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilsin.

12. Protokol bo'limi (F.Keldibekov) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning barcha tarkibiy bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi va Respublika ta'lim markaziga yetkazilishini ta'minlasin.

13. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



E.Karimova

Toshkent sh.,
2026-yil " 16 " -mart,
102-son

**Yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon
o‘tkazish shakllari**

9-sinf uchun	
Ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun) / Davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun)	Yozma shaklda
Matematika	
O‘zbekiston tarixi	Yozma/og‘zaki shaklda
Jismoniy tarbiya	Amaliy shaklda
11-sinf uchun	
Majburiy fanlar	
Ona tili va adabiyot (ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan sinflar uchun) / Davlat tili (ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun)	Yozma shaklda
Matematika (Asosiy) / Matematika (Chuqurlashtirilgan)*	
Tarix	
Tanlov fanlar**	
Ona tili va adabiyoti (ta’lim qoraqalpoq, rus, qozoq, turkman, tojik, qirg‘iz tilida bo‘lgan sinflar uchun)	Yozma shaklda
Biologiya	
Fizika	
Kimyo	
Davlat huquq asoslari	
Geografiya	
Chet tili	Yozma/og‘zaki shaklda

Izoh:

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi umumta’lim maktablari uchun davlat tili imtihonini qoraqalpoq tilida topshirish tavsiya etiladi.

11-sinf bitiruvchilari 3 ta majburiy va 2 ta (Matematika (Chuqurlashtirilgan) variantini tanlagan o‘quvchilar uchun 1 ta) tanlov fanlaridan imtihonlar topshirishlari kerak bo‘ladi.

** Matematika fanidan 11-sinf bitiruvchilari berilgan 2 ta variantdan birini tanlashlari mumkin. Bunda:*

***Matematika (Asosiy):** Umumta’lim dasturidagi asosiy bilim va ko‘nikmalar baholanadi.*

***Matematika (Chuqurlashtirilgan):** Umumta’lim chuqurlashtirilgan dasturidagi bilim va ko‘nikmalar baholanadi.*

***11-sinfda o‘quvchining ixtiyoriga ko‘ra tanlov fanlar yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishidan bir oy oldin uning arizasiga ko‘ra tanlanadi.*

**Umumta'lim fanlari hamda xorijiy tillarni bilish darajasini
baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar
RO'YXATI**

T/r	Xorijiy tillarni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nomi*
Ingliz tili bo'yicha	
1.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
2.	Test of English as a Foreign Language — TOEFL iBT
3.	Cambridge English Qualifications
4.	International English Language Testing System — IELTS (Academic)
5.	Cambridge Linguaskill
6.	International Test of English Proficiency iTEP Academic — Plus
7.	Aptis ESOL Advanced
Fransuz tili bo'yicha	
8.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
9.	Diplôme d'Etudes en Langue Française (DELF)
10.	Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF)
11.	Test de Connaissance du Français (TCF)
Nemis tili bo'yicha	
12.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
13.	Goethe-Zertifikat
14.	Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF)
15.	Deutsches Sprachdiplom (DSD I, II)
16.	TELC
Ispan tili bo'yicha	
17.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
18.	Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE)
19.	Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE)
Italyan tili bo'yicha	
20.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
21.	Certificato di Conoscenza della Lingua Italiana (CELI)
22.	Certificazione di Italiano come Lingua Straniera (CILS)
Arab tili bo'yicha	
23.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
24.	AT Tanal Al Arabi
Xitoy tili bo'yicha	
25.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
26.	Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK)
Yapon tili bo'yicha	
27.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
Koreys tili bo'yicha	
28.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat

29.	Test of Proficiency in Korean (TOPIK II)
Turk tili bo'yicha	
30.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
31.	Türkçe Yeterlik Sinavi (TYS)
Pushtu, Dariy, Urdu, Hindiy, Uyg'ur, Fors tillari bo'yicha	
32.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha milliy sertifikat
T/r	Umumta'lim fanlari bo'yicha milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar nomi**
Matematika bo'yicha	
1.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
2.	A-LEVEL (Mathematics)
Fizika bo'yicha	
3.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
4.	A-LEVEL (Physics)
Kimyo bo'yicha	
5.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
6.	A-LEVEL (Chemistry)
Biologiya bo'yicha	
7.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
8.	A-LEVEL (Biology)
Tarix bo'yicha	
9.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
Geografiya bo'yicha	
10.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat
Ona tili va adabiyot bo'yicha	
11.	Umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risidagi milliy sertifikat

Izoh:

* ilovada ko'rsatilgan xorijiy til fanidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 29-mayda 3515-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan **B1 va undan yuqori darajaga tenglashtirilgan** milliy va xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etilib, mazkur fandan ularga **5 baho** beriladi;

** ilovada ko'rsatilgan umumta'lim fanidan milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar yakuniy imtihonni topshirishdan ozod etiladi.

Bunda milliy sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar uchun mazkur fandan **A, A+** darajasi uchun **5 baho**, **B, B+** darajasi uchun **4 baho** hamda **C, C+** darajasi uchun **3 baho** qo'yiladi. Xalqaro sertifikat (A Level) natijalariga ko'ra esa **A***, **A** yoki **B** darajasi uchun **5 baho**, **C** darajasi uchun **4 baho** hamda **D** yoki **E** darajasi uchun **3 baho** qo'yiladi.

Amal qilish muddati cheklanmagan (belgilanmagan) sertifikatlar uchun sertifikat olingan kundan boshlab **uch yil davomida** qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyoz qo'llaniladi. Ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarning rasmiy ro'yxatidan o'tgan test markazlariga (authorized test centers) tashrif buyurmasdan, tashkilot vakillarining bevosita nazorati ostida imtihonni topshirmasdan, masofadan olingan sertifikatlar (Remote, Home Edition va boshqa turdagi sertifikatlar) yakuniy imtihonni topshirishda tan olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil " 16 " -martdagi
102-sonli buyrug'iga

3-ILOVA

**2025-2026-o'quv yili yakunida Kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha
yakuniy imtihon bo'lib o'tadigan ta'lim muassasalari
RO'YXATI**

T/r		Tuman (shahar) nomi	Ta'lim muassasasi nomi
Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha			
1	1	Nukus shahri	2-maktab
2	2	Amudaryo tumani	76-maktab
3	3	Beruniy tumani	69-maktab
4	4	Bo'zatov tumani	4-maktab
5	5	Qarao'zak tumani	33-maktab
6	6	Qonliko'l tumani	4-maktab
7	7	Kegeyli tumani	14-maktab
8	8	Mo'ynoq tumani	2-maktab
9	9	Nukus tuman	1-maktab
10	10	Taxiatosh tumani	1-maktab
11	11	To'rtkul tumani	44-maktab
12	12	Xo'jayli tumani	14-maktab
13	13	Chimboy tumani	38-maktab
14	14	Ellikqal'a tumani	6-maktab
15	15	Qo'ng'iro't tumani	37-maktab
16	16	Taxtak'o'pir tumani	6-maktab
17	17	Sho'manay tumani	1-maktab
Andijon viloyati bo'yicha			
18	1	Andijon shahar	55-maktab
19	2	Andijon tumani	55-maktab
20	3	Asaka tumani	1-maktab
21	4	Baliqchi tumani	54 maktab
22	5	Buloqboshi tumani	18-maktab
23	6	Jalaquduq tumani	8-maktab
24	7	Izboskan tumani	37-maktab
25	8	Marhamat tumani	14-maktab
26	9	Oltinko'l tuman	6-maktab
27	10	Paxtaobod tumani	69- IDUM
28	11	Qo'rg'ontepa tumani	3-maktab
29	12	Shahrixon tumani	3-maktab
30	13	Xo'jaobod tumani	14-maktab

31	14	Xonobod shahar	2-maktab
32	15	Bo'ston tumani	21-maktab
33	16	Ulug'nor tumani	21-maktab
Buxoro viloyati bo'yicha			
34	1	Buxoro shahri	4-IDUM
35	2	Kogon shahar	9-maktab
36	3	Buxoro tumani	18-maktab
37	4	Vobkent tumani	8-maktab
38	5	Jondor tumani	21-maktab
39	6	Kogon tumani	11-maktab
40	7	Olot tumani	35-maktab
41	8	Peshku tumani	1-IDUM
42	9	Romitan tumani	1-IDUM
43	10	Shofirkon tumani	11-maktab
44	11	Qorako'l tumani	53-maktab
45	12	Qorovulbozor shahri	4-maktab
46	13	G'ijduvon tumani	60-IDUM
Jizzax viloyati bo'yicha			
47	1	Arnasoy tumani	8-maktab
48	2	Baxmal tumani	1-maktab
49	3	G'allaorol tumani	78-maktab
50	4	Do'stlik tuman	1-maktab
51	5	Sharof Rashidov tumani	13-maktab
52	6	Zarbdor tumani	1-maktab
53	7	Zafarobod tumani	10-maktab
54	8	Zomin tumani	50-maktab
55	9	Mirzacho'l tumani	18-maktab
56	10	Paxtakon tumani	4-maktab
57	11	Forish tuman	15-maktab
58	12	Yangiobod tumani	12-maktab
59	13	Jizzax shahar	22-maktab
Qashqadaryo viloyati bo'yicha			
60	1	G'uzor tumani	1- IDUM
61	2	Dehqonobod tumani	70- IDUM
62	3	Qamashi tumani	28-maktab
63	4	Qarshi tumani	71-maktab
64	5	Qarshi shahar	10-maktab
65	6	Kasbi tumani	5-maktab
66	7	Koson tumani	20-maktab
67	8	Ko'kdala tumani	6-maktab
68	9	Mirishkor tumani	1- IDUM
69	10	Nishon tumani	1- IDUM
70	11	Chiroqchi tumani	25-maktab
71	12	Shahrisabz shahar	13-maktab

72	13	Yakkabog' tumani	21-maktab
73	14	Kitob tumani	20-maktab
74	15	Muborak tumani	34-maktab
75	16	Shahrisabz tuman	26-maktab
Navoiy viloyati bo'yicha			
76	1	Navoiy shahri	5-maktab
77	2	Zarafshon shahri	3-maktab
78	3	G'ozg'on shahri	2-maktab
79	4	Karmana tumani	5-maktab
80	5	Navbahor tumani	3-maktab
81	6	Konimex tumani	2-maktab
82	7	Nurota tumani	19-maktab
83	8	Qiziltepa tumani	26-maktab
84	9	Xatirchi tumani	20-maktab
85	10	Uchquduq tumani	10-maktab
86	11	Tomdi tumani	12-maktab
Namangan viloyati bo'yicha			
87	1	Namangan shahri	88-maktab
88	2	Yangi Namangan tumani	86-maktab
89	3	Davlatobod tumani	92-maktab
90	4	Kosonsoy tumani	8-maktab
91	5	Mingbuloq tumani	6-maktab
92	6	Namangan tumani	5-maktab
93	7	Norin tumani	12-maktab
94	8	To'raqo'rg'on tumani	9-maktab
95	9	Pop tumani	40-maktab
96	10	Uychi tumani	37-maktab
97	11	Uchqo'rg'on tumani	8-maktab
98	12	Chortoq tumani	22-maktab
99	13	Chust tumani	15-maktab
100	14	Yangiqo'rg'on tumani	10-maktab
Samarqand viloyati bo'yicha			
101	1	Samarqand shahar	11-maktab
102	2	Samarqand shahar	20-maktab
103	3	Samarqand shahar	65-maktab
104	4	Samarqand shahar	70-maktab
105	5	Samarqand shahar	71-maktab
106	6	Samarqand shahar	81-maktab
107	7	Kattaqo'rg'on shahar	11-IDUM
108	8	Kattaqo'rg'on shahar	2-maktab
109	9	Kattaqo'rg'on shahar	5-maktab
110	10	Kattaqo'rg'on shahar	9-maktab
111	11	Kattaqo'rg'on shahar	15-maktab
112	12	Kattaqo'rg'on shahar	12-maktab

113	13	Bulung'ur tumani	2-maktab
114	14	Bulung'ur tumani	5-maktab
115	15	Bulung'ur tumani	36-maktab
116	16	Bulung'ur tumani	42-maktab
117	17	Bulung'ur tumani	48-maktab
118	18	Bulung'ur tumani	70-maktab
119	19	Jomboy tumani	7-maktab
120	20	Jomboy tumani	14-maktab
121	21	Jomboy tumani	26-maktab
122	22	Jomboy tumani	40-maktab
123	23	Jomboy tumani	55-maktab
124	24	Jomboy tumani	56-maktab
125	25	Ishtixon tuman	8-maktab
126	26	Ishtixon tuman	15-maktab
127	27	Ishtixon tuman	22-maktab
128	28	Ishtixon tuman	38-maktab
129	29	Ishtixon tuman	48-maktab
130	30	Ishtixon tuman	51-maktab
131	31	Kattaqo'rg'on tumani	23-maktab
132	32	Kattaqo'rg'on tumani	6-maktab
133	33	Kattaqo'rg'on tumani	10-maktab
134	34	Kattaqo'rg'on tumani	20-maktab
135	35	Kattaqo'rg'on tumani	35-maktab
136	36	Kattaqo'rg'on tumani	63-maktab
137	37	Qo'shrabot tuman	9-maktab
138	38	Qo'shrabot tuman	28-maktab
139	39	Qo'shrabot tuman	64-maktab
140	40	Qo'shrabot tuman	82-maktab
141	41	Qo'shrabot tuman	88-maktab
142	42	Qo'shrabot tuman	89-maktab
143	43	Narpay tumani	56-maktab
144	44	Narpay tumani	27-maktab
145	45	Narpay tumani	30-maktab
146	46	Narpay tumani	7-maktab
147	47	Narpay tumani	62-maktab
148	48	Narpay tumani	71-maktab
149	49	Nurobod tumani	2-maktab
150	50	Nurobod tumani	13-maktab
151	51	Nurobod tumani	16-maktab
152	52	Nurobod tumani	22-maktab
153	53	Nurobod tumani	30-maktab
154	54	Nurobod tumani	61-maktab
155	55	Oqdaryo tumani	12-maktab
156	56	Oqdaryo tumani	30-maktab

157	57	Oqdaryo tumani	32-maktab
158	58	Oqdaryo tumani	38-maktab
159	59	Oqdaryo tumani	40-maktab
160	60	Oqdaryo tumani	56-maktab
161	61	Payariq tumani	19-maktab
162	62	Payariq tumani	62-maktab
163	63	Payariq tumani	68-maktab
164	64	Payariq tumani	84-maktab
165	65	Payariq tumani	102-maktab
166	66	Payariq tumani	103-maktab
167	67	Pastdarg'om tumani	56-IDUM
168	68	Pastdarg'om tumani	21-maktab
169	69	Pastdarg'om tumani	65-maktab
170	70	Pastdarg'om tumani	70-maktab
171	71	Pastdarg'om tumani	126-maktab
172	72	Paxtachi tumani	1-maktab
173	73	Paxtachi tumani	12-maktab
174	74	Paxtachi tumani	22-maktab
175	75	Paxtachi tumani	32-maktab
176	76	Paxtachi tumani	34-maktab
177	77	Paxtachi tumani	37-maktab
178	78	Samarqand tumani	33-maktab
179	79	Samarqand tumani	53-maktab
180	80	Samarqand tumani	37-maktab
181	81	Samarqand tumani	13-maktab
182	82	Samarqand tumani	12-maktab
183	83	Samarqand tumani	20-maktab
184	84	Toyloq tumani	2-maktab
185	85	Toyloq tumani	15-maktab
186	86	Toyloq tumani	31-maktab
187	87	Toyloq tumani	41-maktab
188	88	Toyloq tumani	58-maktab
189	89	Toyloq tumani	60-maktab
190	90	Urgut tumani	16-maktab
191	91	Urgut tumani	27-maktab
192	92	Urgut tumani	48-maktab
193	93	Urgut tumani	121-maktab
194	94	Urgut tumani	151-maktab
195	95	Urgut tumani	153-maktab
Surxondaryo viloyati bo'yicha			
196	1	Termiz shahar	26-maktab
197	2	Angor tumani	1-maktab
198	3	Bandixon tumani	17-maktab
199	4	Boysun tumani	39-maktab

200	5	Denov tumani	82-maktab
201	6	Jarqo'rg'on tumani	36-maktab
202	7	Muzrabot tumani	51-maktab
203	8	Oltinsoy tumani	65-maktab
204	9	Sariosiyo tumani	7-maktab
205	10	Termiz tumani	35-maktab
206	11	Uzun tumani	1-maktab
207	12	Sherobod tumani	5-maktab
208	13	Sho'rchi tumani	14-maktab
209	14	Qiziriq tumani	40-maktab
210	15	Qumqo'rg'on tumani	2-maktab
Sirdaryo viloyati bo'yicha			
211	1	Boyovut tumani	22-maktab
212	2	Guliston tumani	29-maktab
213	3	Mirzaobod tuman	5-maktab
214	4	Oqoltin tuman	17-maktab
215	5	Sardoba tumani	12-maktab
216	6	Sayxunobod tumani	27-maktab
217	7	Sirdaryo tumani	41-maktab
218	8	Guliston shahar	4-maktab
219	9	Yangiyer shahar	9-maktab
220	10	Shirin shahri	1-maktab
221	11	Xovos tuman	30-maktab
Toshkent viloyati bo'yicha			
222	1	Angren shahri	4-maktab
223	2	Chinoz tumani	13-maktab
224	3	Piskent tumani	6-maktab
225	4	O'rta Chirchiq tumani	42-maktab
226	5	Quyichirchiq tumani	45-maktab
227	6	Chirchiq shahar	14-maktab
228	7	Bo'ka tumani	21-maktab
229	8	Ohangaron shahar	2-IDUM
230	9	Ohangaron tumani	6-maktab
231	10	Toshkent tumani	23-maktab
232	11	Bekobod shahar	3-maktab
233	12	Yangiyo'l tumani	40-maktab
234	13	Zangiota tumani	14-maktab
235	14	Oqqo'rg'on tumani	31-maktab
236	15	Yuqori Chirchiq tuman	15-maktab
237	16	Bo'stonliq tuman	3-maktab
238	17	Olmaliq shahar	1-UDUM
239	18	Yangiyo'l shahar	3-maktab
240	19	Qibray tumani	46-maktab
241	20	Nurafshon shahar	13-maktab

242	21	Parkent tumani	51-maktab
243	22	Bekobod tumani	35-maktab
Farg'ona viloyati bo'yicha			
244	1	Marg'ilon shahri	10-maktab
245	2	Farg'ona shahar	26-maktab
246	3	Quvasoy shahar	4-maktab
247	4	Qo'qon shahri	23-maktab
248	5	Bag'dod tumani	17 maktab
249	6	Beshariq tumani	33-maktab
250	7	Buvayda tumani	3-maktab
251	8	Dang'ara tumani	1-maktab
252	9	Yozyovon tumani	4-maktab
253	10	Oltiariq tumani	20-IDUM
254	11	Qo'shtepa tumani	7-maktab
255	12	Rishton tumani	58 maktab
256	13	So'x tumani	29-maktab
257	14	Toshloq tumani	39-maktab
258	15	Uchko'prik tumani	15-maktab
259	16	Farg'ona tumani	63-maktab
260	17	Furqat tumani	37-maktab
261	18	O'zbekiston tumani	49-maktab
262	19	Quva tumani	56-maktab
Xorazm viloyati bo'yicha			
263	1	Urganch shahar	30-IDUM
264	2	Xiva shahar	18-maktab
265	3	Bog'ot tumani	30-maktab
266	4	Gurlan tumani	16-maktab
267	5	Qo'shko'pir tumani	13-maktab
268	6	Urganch tumani	47- IDUM
269	7	Hazorasp tumani	25-maktab
270	8	Xonqa tumani	35-maktab
271	9	Xiva tumani	8-maktab
272	10	Shovot tumani	32-maktab
273	11	Yangiariq tumani	29-maktab
274	12	Yangibozor tumani	33- IDUM
275	13	Tuproqqal'a tumani	2-maktab
Toshkent shahar bo'yicha			
276	1	Mirobod tumani	158 maktab
277	2	Uchtepa tumani	295-maktab
278	3	Yakkasaroy tumani	100-maktab
279	4	Yashnobod tumani	255-maktab
280	5	Yangihayot tumani	329-maktab
281	6	Sergeli tumani	104-maktab
282	7	Mirzo Ulug'bek tumani	223-maktab

283	8	Mirzo Ulugʻbek tumani	190-maktab
284	9	Chilonzor tumani	131-maktab
285	10	Olmazor tumani	298 maktab
286	11	Bektemir tumani	291-maktab
287	12	Yunusobod tumani	97-maktab
288	13	Shayxontohur tumani	102-maktab

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2026-yil " 16 " -martdagi
102-sonli buyrug'iga

4-ILOVA

**2025-2026-o'quv yili yakunida pedagogik sinflar yo'nalishi bo'yicha
yakuniy imtihon bo'lib o'tadigan ta'lim muassasalari
RO'YXATI**

T/r	Hudud nomi	Tuman (shahar) nomi	Ta'lim muassasasi nomi
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus shahar	19-maktab
2	Andijon viloyati	Andijon shahar	27-maktab
3	Buxoro viloyati	Buxoro shahar	15-maktab
4	Jizzax viloyati	Jizzax shahar	17-maktab
5	Qashqadaryo viloyati	Shahrisabz shahar	22-maktab
6	Navoiy viloyati	Navoiy shahar	20-maktab
7	Namangan viloyati	Namangan shahar	31-maktab
8	Samarqand viloyati	Samarqand shahar	13-maktab
9	Surxondaryo viloyati	Termiz shahar	12-maktab
10	Sirdaryo viloyati	Guliston shahar	18-maktab
11	Toshkent viloyati	Chirchiq shahar	21-maktab
12	Farg'ona viloyati	Qo'qon shahar	4-maktab
13	Xorazm viloyati	Urganch shahar	18-maktab
14	Toshkent shahri	Uchtepa tumani	81-maktab